



## NOSHIRLIK ASARLARI

### Manzura O'teniyazova Azatbay qizi<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistka fakultetining Noshirlik ishi talabasi

### Shakhnozabonu Baltaniyazova<sup>2</sup>

<sup>2</sup>Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistka fakultetining jurnalistika foliyat turlari talabasi

### Nurjanov Perdebay Erjanovich<sup>3</sup>

<sup>3</sup>Ilmiy rahbar: Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistka fakultetining professor o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7549804>

### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 15<sup>th</sup> January 2023

Online: 19<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

*noshir, nashriyot, fan, predmet, maqsad, vazifa, Bosma kitob, rivojlanish, davr, yozuv, tur, xususiyat, nashr*

### ABSTRACT

*Maqolada hozirgi kunda noshirlik ishi amalga oshirilib kelingan orinlar va O'zbekistonda o'z faoliyatini yuritayotgan nashriyot korxonalar haqida so'z boradi. Noshirlik faoliyatida o'z mehnati bilan ko'ringan shaxslar ham e'tibordan chetda emas albatta.*

“Noshirlik asoslari” noshirlik xususidagi fan bo'lib, asosan nashr ishlari bilan shug'ullanish, u haqdagi bilimlarni o'zida jamlash, kitob nashr etish, matbuot nashrlari xususida muxtasar ma'lumot beradi. “Noshirlik asoslari” fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumiga kiradi. Mazkur fan noshirlik ishiga oid boshqa fanlarning nazariy va uslubiy asosini tashkil qilib, o'z rivojida aniq yo'nalishdagi fanlar uchun zamin bo'lib xizmat qiladi, talabalarning adabiy-estetik tafakkurini yuksalishiga hamda ularning noshirlik ishi yuzasidantasavvurga ega bo'lishida yordamlashadi.

“Noshirlik asoslari” fani noshirlik ishining tarixi, kitob tarixi, bosma ishlar tarixi, gazetalar va jurnallarni nashr qilish tarixi, noshirlik ishiga oid davlat hujjatlari, noshirlik ishining texnologik sxemasi, noshirlik mahsulotlarining turi va tiplari, qo'lyozma va originalni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar to'g'risidabilimga ega bo'lish va ulardan foydalanaolishga o'rgatadi.

Ushbu fan asosida talaba noshirlik mahsuloti o'lchash birliklari, poligrafik ishlar uchun materiallar, noshirlik mahsulotida chiqish ma'lumotlari, kitoblarni raqamlashning xalqaro standartlari, seriyali mahsulotlarni raqamlashning xalqaro standartlarini qo'llashko'nikmalariga ega bo'ladi.

“Noshirlik asoslari” faning asosiy ob'yektini kitob tashkil etadi. Kitob xususida so'z ketganda uning genezisida murojaat etishga to'g'ri keladi. Kitob —axborotlarni, g'oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik karashlarni shakllantirish vositasi; bilimlar targ'iboti va tarbiya quroli; badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot. Xalqaro statistikada YUNESKO tavsiyasiga ko'ra, hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan, taboqlab tikilgan

nodavriy nashrni, shartli ravishda, kitob deyish qabul qilingan.

Kitob ishi kitobni yaratish, tayyorlash, uni tarqatish, saqlash, tavsiflash va o'rganish bilan bog'liq katta jarayonni o'z ichiga oladi. Fan, adabiyot, san'at asarlaridan matbaada ko'paytirish va tarkatish uchun tanlash, ularga ilmiy va badiiy nuqtai nazardan yondoshish, tahrir qilish, badiiy bezash, matbaa ijrosini belgilash va nashrga tayyorlash noshirlikning vazifasi. Kitobni ko'plab chiqarish — kitob bosish ishi poligrafiya sanoatida olib boriladi. Kitoblarni to'plash, saqlash, o'quvchilar o'rtasida tashviqot qilish, ulardan kitobxonlar foydalanishlari uchun qulay sharoit yaratish kutubxona ishiga qaraydi. Kitob va boshqa bosma asarlar haqida muayyan maqsad bilan o'quvchilarga ma'lumot berish va ularni tashviqot qilish bibliografiya vazifasidir va h.k.

Kitobning paydo bo'lish tarixi yezuvning yaratilishi va shakllanishi jarayoni bilan o'zviy bog'liq. Yozuvning to'zish xususiyatlari (belgilar tizimi, ularning joylashish tartibi), yozuv materiali va qurolining o'ziga xos tomoni va boshqa ma'lum darajada kitob tuzilishini ham belgilab berdi. Qadimgi Misr, Rim, Yunoniston va O'rta Osiyoda kishilar tosh, palma daraxti barglari, sopol va boshqa materiallarga yozib fikrini izhor etganlar. Har bir kitobo'nlab shunday materiallardan tayyorlangan plitalardan iborat bo'lib, og'irligi bir necha kg bo'lgan. Yozuv materiali sifatida papirus usimligi ishlatilishi (miloddan avvalgi IV—III ming yilliklarda) bilan o'rama kitoblar paydo bo'ldi. Bunday kitoblarning o'zunligi o'rtacha 10 m atrofida bo'lib, ingichka, yumaloq tayoqlarga o'ralgan va maxsus charm yoki yog'och g'iloflarda saqlangan. Sharq mamlakatlari, Qadimgi Rim va Yunonistondagi ko'pgina nodir asarlar papirusga bitilgan. Miloddan avvalgi II asrga kelib kitob materiali sifatida pergament (teri)dan foydalanish keng rasm bo'ldi. Dastlab bunday kitobo'rama holda saqlangan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, O'rta Osiyoda, xususan, Xorazmdamiloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida vujudga kelgan zardo'shtiylik dinining muqaddas kitoblaridan Avestoning qadimgi nusxasi ham 12 ming mol terisiga bitilgan. Arablarning O'rta Osiyodagi istilosiga qadar (VIII-X asrlar) u yerda ko'p nodir kitoblar saqlangan kutubxonalar bo'lgan. Lekin ularning ko'pi bosqinchilik urushlari natijasida yo'qotib yuborilgan. II - IV asrlardan boshlab qadimgi Rimda xuddi hozirgi kitoblarning varaqalari singari buklab, tikib tayyorlangan va bir-biriga biriktirilgan, muqovali kitoblar — kodeksi paydo bo'ldi. Ular dastlab papirus, so'ng pergamentga yozilgan. Bunday kitoblar og'ir va besunaqay edi. VI asrdan boshlab kodeks shakli asosida hozirgi ko'rinishdagi kitoblar paydo bo'ldi. Teriga ishlangan noyob kitoblardan biri — Musrdagi Usmon Kur'onidir. Qur'oni Karimning bu nusxasi 644-656 yillarda xalifa Usmon ko'rsatmasi bilan Muhammad (sav)ning kotiblari Zayd ibn Sobit, Amir ibn al-O's va Hishom ibn Hakimlar tomonidan kufiy xatida yozilgan. Mazkur qo'lyozma kitob Amir Temur tomonidan Samarqandga olib kelingan. Jami 353 varaq, hajmi 68x53x22 sm. O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanadi.

Qog'ozning kashf qilinishi kitob tarixida yangi davr ochdi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, 650 yillardayoq Samarqandda qog'ozli kitoblar bo'lgan. XIII asrdan Yevropada qog'oz asosiy yozuv materiali bo'lib qoldi. Qog'oz kitobning ko'payishiga va tarqalishiga yangi imkoniyat ochdi. Kitob bezashga alohida ahamiyat berildi. Uning sahifalariga turli miniatyuralar, hoshiyalariga bezaklar ishlana boshladi. Asta-sekin xattotlik (kalligrafiya), muqovasozlik kabi kasblar ajralib chiqdi. Ayniqsa, O'rta Osiyoda o'rta asrlarda xattotlik san'ati keng rivojlandi. Mashhur xattotlarning ko'p avlodlari kitob tayyorlash usulini — materiallar, siyoh, xat ko'chirish texnikasini takomillashtirib bordilar.

X-XII asrlarda Movarounnahrda muayyan soxa sifatida shakllangan kitobat san'ati XIV-XV asrlarda yangi taraqqiyot bosqichiga kutarildi. Har bir kitob qog'ozidan tortib muqovasigacha, siyoxdan to buyoqlari-yu zarhaligacha ma'lum me'yordagi modda, reja va qoida asosida tayyorlanadi, hatto kitobdan xushbo'y hid anqib turishi uchun ba'zan siyohga gulob yoki anbar qo'shildirdi. Qo'lyozmalar nafis husnixat, zarafshon (tilla suvi sochish), suvli buyoqlar bilan hoshiyaga nafis naqshlar ishlab badiiy bezatildi. XV-XVI asrlarda bir qancha iste'dodli xattot, musavvir, lavvoh va saxdoflar (Abdurahmon Xorazmiy, Sultonali Mashqadiy, Sultonali Xandon, Mirali qilqalam va boshqalar) yetishdi. Hirot xattotlariga ustozlik qilib, kitobat san'ati ravnaqiga ulkan hissasini qo'shgan xushnavis xattotlardan Sultonali Mashhadiy edi. U Nizomiy, Hofiz, Sa'diy, Navoiy, Husayn Boyqaro va boshqalarning asarlarini ko'chirib shuhrat qozondi.

Kitob o'z-o'zidan vujudga kelgani yo'q. U adabiy estetik tafakkur mevasi sanaladi. Bu adabiy estetik tafakkurga yetishish uchun insoniyatga ma'lum bir davrlar lozim bo'ldi. Chunki insoniyat tarixida kitob holatiga mahsulot rivojlanish pallasiga ega bo'lgan xo'sh, umuman, bosma kitob davrigacha kitob qanday holatda bo'lgan savoli tabiiy holda yuzaga keladi. Qadimgi davrga e'tibor qaratilsa, pergament, papiruslardan oldin yozuvning o'zi paydo bo'lgan, u keyinchalik teriga yoki qog'ozga ko'chirilgan shu bois kitob nashrlarini o'rganishdan avvalroq yozuv haqida ma'lumot olish lozimdir.

Yozuv deb tilning matnorqali ifodalanishiga aytiladi. Bunda matn yozuv tizimideb nomlanuvchi tayinli belgi va ramzlardan iborat bo'ladi. Yozuv rasm yoki magnitli audioyozuv kabi matnmas ifodalovchi yoki til saqlovchi vositalardan farqlanadi.

Yozuv — muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi muloqatga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Yozuv— kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma'nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri. Yozuv tildan ancha keyin paydo bo'lgan (tovush tili 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan, Yozuvning paydo bo'lganiga esa 4-5 ming yillar bo'lgan). Og'zaki til (nutq)ning zamon (vaqt) va makon (masofa) nuqtai nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati Yo.ning paydo bo'lishiga olib kelgan. Og'zaki til talaffuz vaqtidagina va ayni paytda muayyan masofadagi (tovush to'lqinlari yetib borishi mumkin bo'lgan) kishi uchungina mavjuddir. Boshqa sharoitlarda tilga ehtiyoj paydo bo'lishi bilan inson dahosi bu ehtiyojni qondira oluvchi vositalarni qidira boshlagan, natijada belgilar tizimidan iborat Yozuv dunyoga kelgan. Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o'zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik harakterdagi axborotlarni qayd etish, sakdash zaruriyati bilan bevosita bog'liq. Xalqlarning davlat sifatida birlashuvi nutqiy aloqa doirasini kengaytiradi va murakkablashtiradi; ishlab chiqarish va savdo kengayadi; boshqa xalqlar va davlatlar bilan harbiy, siyosiy va boshqa shartnomalar tuziladi; qonunlar paydo bo'ladi va mustahkamlanadi; diniy qarashlar va mafkuraning boshqa turli ko'rinishlari shakllanadi; xalqlarning o'z tarixini bilishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bularning barchasini faqat og'zaki nutq vositasida amalga oshirish mumkin emas. Bu sharoitda yozuv zaruriyatga aylanadi. Yozuv og'zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo'shimcha aloqa vositasi bo'lsada, unga qaraganda ko'p afzalliklarga ega. Xususan, tilning asosiy vazifasi — kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlashdir. Tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas. Tilning estetik, gnoseologik (dunyoni bilish) kabi asosiy vazifalarini ham yozuvsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, tilning

insoniyat qo'lg'a kiritgan tajribabilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi bevosita Yo. Orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyotlar, so'z san'ati durdonalari va b. Qimmatli axborotlarning barchabarchasi avlodlardan avlodlarga Yo. Orqali yetib boradi. Til jamiyat tarixi bilan qanchalik bog'liq bo'lsa, Yo. Ham shunchalik bog'liqdir. Dastlabki qarashlarda yozuvning kelib chiqishini ilohiyotga bog'lash uchraydi. Bu aslida yozuvning tengsiz imkoniyatlarini tasavvurga sig'dira olmaslik, yozuv magiyasi ("Yozuv sehrli qudratga ega" degan ishonch) oqibatida kelib chiqqan jo'n tasavvurlar mahsulidir. Yozuv kishilik jamiyatining zaruriy ehtiyoji asosida paydo bo'lib, rivojlanib borgan. Bugungi shaklini olgunga qadar uzok, va murakkab tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Inson aqli yozuvday mukammal aloqa vositasini kashf qilguncha uzoq izlangan. Eng qadimgi davrlarda dunyo xalqlarining deyarli barchasida keng tarqalgan "eslatuvchi" belgilar ana shu izlanishlarning ilk ko'rinishlari edi. Masalan, muayyan miqdorni ifodalash uchun turli toshlar, chig'anoqlardan foydalanilgan, tayoqlar, daraxtlarga har xil iplar bog'lash, tugunlar tugib qo'yish va b. Vositalar bilan muayyan axborotni esda saqlash yoki muayyan masofaga yuborishga harakat qilingan. Yoki bir xabarni uzoq, masofaga yetkazish uchun tutun, gulxan, baraban ovozi va sh.k. qo'llangan. Xabarni uzoq, vaqt saqlash uchun ramziy ma'no berilgan buyumlardan foydalanilgan: qo'rg'on — marhum ko'milgan joy belgisi; slavyan qabilalarida nontuz — do'stlik belgisi; trubka — tinchlik, sulh belgisi va b. "Buyumli yozuv" nomi bilan yuritiladigan bunday axborot vositalarining qoldiqlari hozirda ham ba'zan saqlangan. Masalan, biror fikrni esdan chiqarib qo'ymaslik uchun ro'molchanning uchini tugib qo'yish odatini yodga olish mumkin. Rasmi yozuv (piktografiya) yaratish yo'lidagi birinchi qadam bo'lgan. Rasm bilan yozuv'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud, avvalo, har ikkalasi ham ko'rish orqali idrok qilinadi. Piktografik yozuvni ibtidoiy tasviriy san'at ichida yuzaga kelgan deyish mumkin. Arxeolog olimlarning bundan juda ko'p ming yilliklar ilgari insonlar tomonidan chizilgan turli rasmlarning mavjudligi haqidagi ma'lumotlari ma'lum. Toshlarga, suyaklarga, g'or devorlariga o'yib ishlangan xilma-xil hayvonlarning rasmlari, umumiy mazmunga birlashuvchi tasviriy lavhalar — bularning bari piktografik yozuv ning asoslaridir. Ana shu ibtidoiy tasviriy san'at ikki yo'nalishda — umuman rasmlar va muayyan axborot vositasi, ya'ni yozuv sifatida shakllana borgan. Buni dunyo tillarining juda ko'pchiligidagi "yozmoq" ma'nosidagi so'zlarning etimologiyasiga e'tibor qilganda ham bilish mumkin. Bunday so'zlarning etimologiyasida asosiy mazmun rasm chizish jarayoni bilan bog'lits holda namoyon bo'ladi. Masalan, qadimgi turkiy tillarda "yozmoq" tushunchasi "bit(i)moq" fe'li ("bitik" — yozuv, kitob) bilan ifodalangan. Bu fe'lning o'zagi xitoycha "bi" (mo'yqalam) so'zi bilan aloqador bo'lib, dastlabki ma'nosi "o'ymoq, o'yib bezamoq", undan keyin "yozmoq" demakdir. Slavyan tillardagi "pisat" (rus. "pisat" — "yozmoq") fe'lining ma'nosi ham dastlab mo'yqalamda rasm chizish bilan bog'liq bo'lgan (rus. "jivopis" — rangtasvir so'zi bilan qiyoslang). Bu fe'lning o'zagi lot. "pingere" (rasm solmoq) so'zi bilan aloqadordir, "pisat" fe'lining dastlabki ma'nosi, ko'rinadiki, "rasm solmoq", "bezamoq"dan iborat bo'lgan. Gotcha "melian" (yozmoq) fe'lining dastlabki ma'nosi ham mo'yqalamda "rasm solmoq" bo'lib, bu fe'l hoz. Nemis tilida "malen" shaklida va "rasm solmoq" ma'nosida qo'llanadi. Yunon tilidan ko'pgina tillarga o'tgan "grafika" so'zi ham etimologik jihatdan o'yish, tirnash tushunchalarini ifodalaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Manzura O'teniyazova Azatbay qizi, Azerbaev Ajiniyaz Bayrambay ug'li, Orazbaeva Nilufar

- Daryabay qizi. (2023). NOSHIRLIK FAOLIYATIDAGI O'ZGARISHLAR. MODELS AND METHODS IN MODERNSCIENCE, 2(1),43–45. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7539551>
2. Manzura O'teniyazova Azatbay qizi, "Noshirlik faoliyati"
  3. Noshirlik asarlari. O'quv qo'llanma. Samarqand davlat universiteti (1-kurs).
  4. «Toshkent» ensiklopediyasi. 2009 yil
  5. "Xalq so'zi" gazetasi 2020-yim 23-iyun. Noshirlik faoliyati uchun endi litsenziya talab qilinmaydi.
  6. Arxiv "Noshirlik faoliyati bilan bog'liq Prezident qarori qabul qilindi. 2020-yil 17-mart.
  7. <https://bugun.uz> O'zbekistonda "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi
  8. <https://shosh.uz>. Toshkentda noshirlik
  9. <https://hozir.org>. Qidir Noshirlik vikapediya org.
  10. <https://lex.uz> Kitob mahsulotlarini nashir etish va tarqatish ishlarini rivojlantirish
  11. <https://e-library.namdu.uz> Nashir jarayoni asosiy bosqichlari.
  12. KatsprjakE.I. Istoriyaknigi, M., 1964
  13. SidorovA.A. Kniga i jizn. M., 1972
  14. Lyublinskiy B.S.Kniga v istorii chelovecheskogo obhestva. M., 1972;
  15. RustamovM. O'zbekkitobi. T., 1968;
  16. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan . T., 1971;
  17. Ziganshina N.A.Musavvir va kitob. T., 1987.
  18. WWW ziyo.uz
  19. . BelyakovA.S. Epigrafika. Vvedenie v spetsial'nuyu istoricheskuyu
  20. Distsiplini. – M., 1990.
  21. 2. Epigrafika Uzbekistana. – T., 1990.
  22. 3. Qo'chqorov T. Paleografiya. – T.: O'zbekiston, 1988.